

**TUXTANAZAROV DILMUROD
SOLIJO NOVICH**

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Zamonaviy axborot-kommunikatsiya
texnologiyalari kafedrası PhD*

**MAXKAMOV ANVARJON
ABDUJABBOROVICH**

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Zamonaviy axborot-kommunikatsiya
texnologiyalari kafedrası PhD*

**DADAMUHAMEDOV ALIMJON
IRGASHEVICH**

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Zamonaviy axborot-kommunikatsiya
texnologiyalari kafedrası katta o'qituvchisi*

АХБОРОТЛАШГАН МАКОНДА YOSHЛАR ONGIGA SALBIY АХБОРОТЛАРNING TA'SIRI

ВОЗДЕЙСТВИЕ НЕГАТИВНОЙ ИНФОРМАЦИИ НА МОЛОДЕЖЬ В ИНФОРМАЦИОННОМ ПРОСТРАНСТВЕ

THE EFFECT OF NEGATIVE INFORMATION ON YOUNG PEOPLE IN INFORMED SPACE

Annotatsiya. Ushbu maqolada internetning salbiy oqibatları va ularning yoshlarga ta'siri, ijtimoiy tarmoqlar va turli ko'ngilochar ilovalarga foydalanuvchilarning bog'lanib qolish muammolari hamda ularni bartaraf etish usullari ko'rib chiqilgan. Salbiy oqibatli axborotlardan yoshlar ongini himoyalashning siyosiy modellari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kibermakon, siyosiy model, ijtimoiy tarmoq, ilova, nazorat, foydalanuvchi, axborot.

Аннотация. В данной статье рассматриваются негативные последствия Интернета и его влияние на молодежь, проблемы подключения пользователей к социальным сетям и различным развлекательным площадкам и пути их преодоления. Разработаны политические модели для защиты сознания молодежи от негативной информации.

Ключевые слова: киберпространство, политическая модель, социальная сеть, приложение, управление, пользователь, информация.

Abstract. This article discusses the negative consequences of the Internet and its impact on young people, the problems of connecting users to social networks and various entertainment sites and ways to overcome them. Political models have been developed to protect the minds of young people from negative information.

Keywords: cyberspace, political models, social network, application, control, user, information.

KIRISH

Raqamli texnologiyalar kibermakondan erkin foydalanish imkonini yaratish bilan bir vaqtda, undagi xavf-xatarlarning ko'z ilg'amas darajada yuqorilayotganini ham anglatadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha ilgari surgan beshta muhim tashabbusdan uchinchisi "aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanish" deb nomlanganligi ham aynan shu bilan izohlanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda Yer yuzi aholisining 4 milliard 536 millioni internetdan foydalanmoqda. Ularning 830 millionini yoshlar tashkil etadi [1:89]. Ular o'rtacha 15-24 yoshli foydalanuvchilardir. Demak, yoshlarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish texnik va mafkuraviy madaniyatini yuksaltirish orqali ularda turli g'oyaviy tahdidlarga, xususan, diniy ekstremizm, terrorizm, "ommaviy madaniyat" va boshqa yot g'oyalarga qarshi mustahkam immunitetni shakllantirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli, kibermakonda diniy-ma'naviy jarayonlarning namoyon bo'lish shakllarini ilmiy asoslangan holda tahlil qilish davrning dolzarb vazifasiga aylandi [11:19].

Hozirgi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi axborotlar kun sayin ko'payib bormoqda. Shuning uchun hozirgi kunda soha mutaxassislari oldida yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi axborotlardan ularni himoyalash muammolarini yechish masalalari dolzardir.

Masalaning qo'yilishi. Internetning salbiy jihatları bu ommaviy kommunikatsiya turi dastlab paydo bo'lganda, aksariyat ishlarning elektron shaklga o'tishi oqibatida ko'plab ish o'rnlari boy beriladi, degan xavotirlar bo'lgan. Chunki internetdan oldin bu ishlar qog'ozlar orqali yoki

ofis-idoralarda ishchi-xodimlar qo'li bilan amalga oshirilardi. Ammo internetning iqtisodiyot uchun, kompaniyalar uchun keltirgan ulkan foydasi bu xavotirlarni yo'qqa chiqardi [3:56]. Endigi asosiy xavotir va tahdid internetda shaxsiy va biznes ma'lumotlarini almashishning qanchalik xavfsiz ekani haqida bo'lmoqda. Xavotirlar shu darajada oshdiki, hatto hukumatlar internet tahdidlarining oldini olish uchun ko'proq e'tibor va resurslar ajratmoqda. Kiber xuruj va kiber urush degan atamalar paydo bo'ldi. Internetda foydalanuvchilar uchun eng katta tahdid ularning shaxsiy ma'lumotlari boshqalarning qo'lga tushishi yoki oshkor qilinishi xavfi hisoblanadi [6:212].

Biz onlayn xizmatlardan foydalanganimizda, ijtimoiy tarmoqlar yoki elektron pochta orqali muloqot qilganimizda ko'plab shaxsiy ma'lumotlarimizni internetga kiritamiz. Bular shaxsiy suratlar, bank yoki moliya ma'lumotlari, sog'liqqa oid ma'lumotlar, do'stlarimiz bilan o'zaro maxfiy yozishmalarimiz yoki email va ayrim saytlarga kirish uchun ishlatiladigan login va parollar bo'lishi mumkin. Odatda, bu ma'lumotlarning xavfsiz saqlanishini onlayn xizmatni taqdim etuvchi saytlar ta'minlaydi, ammo shunday holatlar ham bo'ladiki, bu ma'lumotlaringiz istalmagan uchinchi bir tomon qo'lga o'tib qolishi va ular bu ma'lumotlardan g'arazli maqsadlarda foydalanishi mumkin. Demak, faqat o'zimizgagina tegishli bo'lgan, boshqalarga bizning roziligimizsiz berilmaydigan barcha ma'lumotlar bizning shaxsiy mulkimiz hisoblanadi va ular ustidan shaxsiy daxlsizlik huquqiga egamiz [4:23, 5:51].

Masalani yechilishi. Internetning idrokka ta'siri bo'yicha tadqiqotlarning aksariyati bolalarga qaratilgan. Ba'zi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Internetdan foydalanish, shu jumladan o'yin va maxsus dasturlar, ma'lum bilim ko'nikmalarni oshirishi mumkin, boshqalari salbiy oqibatlarga olib keladi, shu jumladan miyyada tarkibiy o'zgarishlar yuz berishi mumkin [7:32, 8:222]. Internetdan surunkali foydalanadigan odamlarda aqliy ko'rsatkichlarning so'nggi meta-tahlillari shuni ko'rsatdiki, Internetdan foydalanishning salbiy ta'siri bu holat diqqatni jamlay olishdagi sezilarli aqliy nuqsonlar, qaror qabul qilish va xotirani susayishi bilan bog'liqdir [14:90, 15:565].

Axborotlarni aqliy rivojlanishga salbiy ta'sirlar.

O'qish qobiliyatini pasayishi

Analitik fikrlashni yuqolishi

Xotiraga salbiy ta'sir ko'rsatish

Axborotni taxlil qilishning sekinlashishi

Diqqatni jamlay olmaslik




1-rasm. Yoshlarning internetga bog'lanib qolishining salbiy oqibatlari.

Uzoq muddatli Internetdan foydalanish idrokning turli xil o'zaro bog'liq xususiyatlariga ta'sir qilishi mumkin: xotira, analitik fikrlash, aqliy mulohaza, izlanish (qiziqish) va o'qish. Binobarin, odamlar aqliy jihatdan dangasa va yuzaki tafakkur yuritadigan insonlarga aylanib qolishmoqda [2:4].


Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Internetdan foydalanishda ma'lumotni xotirada saqlash uchun kamroq kuch sarflanadi, chunki buning o'rniga ma'lumotni qayerdan olishni eslab qolish mumkin. Agar biror kishi internetda ma'lumot mavjud bo'lmagani bilsa, unda uni yodlash va ma'lumotni xotirada yaxshiroq eslab qolish uchun ko'proq kuch sarflanadi (1-rasm).

Muammolar faqat xotira bilan emas, balki analitik fikrlash bilan ham bog'liq. Internetdan foydalanish, ya'ni ma'lumotdan doimiy foydalanish fikrlash qobiliyatini susayishiga, axborotni qayta ishlash, shu jumladan tafakkurni kamaytirish va ma'lumotni saqlashning pasayishiga olib keladi. Boshqa tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'rib chiqish va skanerlash xatti-harakatlari kalit so'zlarni aniqlashga, chiziqli bo'lmagan o'qishga va doimiy e'tiborni pasayishiga olib keladi [9:367].



2-rasm. Facebook ijtimoiy tarmog'ining 2021-yil aprel holatiga ko'ra foydalanuvchilar statistikasi grafi.

2021-yil aprel holatiga ko'ra O'zbekistonda 4 648 000 Facebook foydalanuvchilari mavjud bo'lib, bu ko'rsatkich O'zbekiston aholisining 13.8 % tashkil qiladi. Foydalanuvchilarning aksaryati erkaklar bo'lib 68.6 % ni 31.4% ni ayollar tashkil qiladi. 25 yoshdan 34 yoshgacha bo'lganlar foydalanuvchilarning asosiy qismini tashkil qiladi [10:224].



Hozirgi kunda Instagram foydalanuvchilari 2021-yil aprel holatiga ko'ra O'zbekistonda 3 732 000 Instagram foydalanuvchilari mavjud bo'lib, bu ko'rsatkich O'zbekiston aholisining 11.1 % tashkil qiladi. Foydalanuvchilarning aksaryati erkaklar bo'lib 68.7 % ni 31.3% ni ayollar tashkil qiladi. 18 yoshdan 24 yoshgacha bo'lganlar foydalanuvchilarning asosiy qismini tashkil qiladi. 18 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan foydalanuvchilar umumiy foydalanuvchilarning 34.6 % ni tashkil qilmoqda va ular ichida 9.9 % ayollar va 24.9 % ni erkaklar tashkil qiladi [12:87].

3-rasm. Instagram ijtimoiy tarmog'ining 2020-yil may holatidan 2021-yil aprel holatiga ko'ra foydalanuvchilar statistikasi grafigi.

Albatta yuqorida keltirilgan muammolarni hal qilish uchun qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazish kerak. Bir vaqtning o'zida yaxlit va keng qamrovli tartibga solishni yaratuvchi integral yondashuv orqali turli xil muammolarni hal qilish uchun bir nechta siyosiy usullarni qo'llash mumkin. Masalan, profilaktika, ta'limni tartibga solish, zararni kamaytirish, yaxshi texnologiyalarni rag'batlantirish va tadqiqotlarni ko'proq rag'batlantirish va shunga o'xshash samarali yondashuvlar [13-307, 16:13].

Ushbu tahlillar asosida salbiy oqibatli tashqi axborotlardan yoshlar ongini himoyalashning siyosiy modellarini ishlab chiqamiz.

1-Profilaktika va sog'likni mustahkamlash - xavf va zararni kamaytirish:

1-qism. Axborot-profilaktika kampaniyalarini ochild;

2-qism. Internetdan foydalanish va uning oqibatlari to'g'risida ma'lumotni oshirish;

3-qism. Ish beruvchilar ishchilarni zararli ish bilan bog'liq bo'lgan internet foydalanishidan himoya qiladigan dastur ishlab chiqishga undash.

2 - Yordam xizmatlarini ko'rsatish:

4-qism. Internet foydalanuvchilari uchun mavjud bo'lgan servis va ijtimoiy xizmatlarni kuchaytirish;

5-qism Shaxsiy onlayn foydalanuvchilar ta'sirida bo'lgan jamoalar va tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash;

3 - Milliy darajadagi hukumat harakatlari:

6-qism. Salbiy oqibatli Internet resurslaridan foydalanuvchilarni himoyalash uchun hukumat bo'linmalarini tuzish.

4 - Sanoat tomonidan yaxshiroq himoya qilish:

7-qism. Internetni zararli ishlarga ishlatilishidan himoya qiladigan texnologiyani targ'ib qilish.

8-qism. Ijtimoiy institutlarni va ijtimoiy birlashmalarni himoya qiladigan texnologiyalarni targ'ib qilish.

5 – Tadqiqot:

9-qism. Internetdan foydalanish va samarali choralar ta'siri bo'yicha ko'proq tadqiqotlarni olib borish.

XULOSA

Yaqindagina ota-onalar bolalarning kompyuter o'yinlariga berilib, ularga bog'lanib qolishlari xavfidan cho'chib, oldini olishga harakat qilgan bo'lsalar, hozirda bu xavfga ijtimoiy tarmoqlar ham qo'shildi. Bolalar va o'smirlarning asosiy vaqti real munosabatlardan ko'ra, chegarasi yo'q ijtimoiy tarmoqlarga ko'chdi. Albatta hozirgi kunda hayotimizni internet va ijtimoiy tarmoqlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Facebook, Instagram, Telegram, Youtube va turli xil messengerlar hayotimizning bir bo'lagiga aylanib ulgurdi. Albatta biz va farzandlarimiz ulardan oqilona va unumli foydalanishimiz kerak. Bunday zamonaviy texnologiyalardan yoshlarni va boshqa foydalanuvchilarni salbiy maqsadlarda foydalanishi yoki bir so'z bilan aytganda Internetga

bogʻlanib qolishini oldini olish uchun birinchi navbatda foydalanuvchining shaxsiy immunitetini shakllantirish kerak.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

- Gianluca Quaglio, Sophie Millar. Potentially negative effects of internet use. Scientific Foresight Unit (STOA) PE 641.540 – May 2020.
- Tuxtanzarov D.S., Buvashev S.O., Kibermakonda xavfsizlikni taʼminlashning zamonaviy usul va algoritmlari // Islom tafakkuri (2-son) 2021, 157-160 b.
- Lunev A.P., Jolobov D.A., Karaguyshiyeva M.A. Texnologiya i arxitektura mobilnoy turisticheskoy informatsionnoy sistemi s podderjkoj personalizatsii. Prikaspiyskiy jurnal: upravleniye i visokiye tekhnologii № 1 (17) – 2012. – C. 66-72.
- Vishnevskaya Y.V., Klimova T.B., Bogomazova I.V. Sovremenniy problema nauki i obrazovaniya. – 2014. – № 6.
- Klimova T.B., Vishnevskaya Y.V., // Nauchnoye obozreniye. – 2014. – №8. – C. 666-669.
- Kovalek Y.P.// Turizm, ekologiya i ustoychivoye razvitiye regionov: materialy mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferentsii. – Tver : TvGU, 2003. – C. 211 – 219.
- Krasovskaya O.S. GIS v sisteme territorialnogo planirovaniya i upravleniya territoriyey: uchebnik dlya vuzov. – M.: ArcReview, 2005. – 238 c.
- Shmatchenko V.F, Shmatchenko V. V // Trudi akademii turizma. – Sankt-Peterburg, 1995. – C. 221-223.
- Pan B, Xiang Z, Law, R. & Fesenmaier. D.R., 2011. The dynamics of search engine marketing for tourist destinations. Journal of Travel Research, 50(4) : 365 – 377.
- Dadamukhamedov A.I. (2019). Development of national network and corporate networks (in the case of Tas-IX network). International Journal of Human Computing Studies, 1(1), 1-5. <https://doi.org/10.31149/ijhcs.v1i1.347>.
- Patulloyev N, Dadamuxamedov A.I, Artikova M. (2020). Turizm rivojlanishida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarning oʻrni. «Актуальные научные исследования в современном мире», 2(1), (58), 15-24.
- Vishnevskaya Ye.V, Klimova T.B., Bogomazova I.V.//Sovremenniy problema nauki i obrazovaniya. – 2015. – № 1-1. – URL:<https://www.science-education.ru/ru/article/view?id=18631>.
- Klimova T, Dumacheva E, Bogomazova I. CURRENT ISSUES IN THE DEVELOPMENT OF MODERN GUIDE USING GIS TECHNOLOGIES // Advances in Environmental Biology, 8(13) August 2014, – P. 305-308.
- Xiang Z., & Pan B. Travel queries on cities in the United States: Implications for search engine marketing for tourist destinations. Tourism Management, 2011. 32(1). p. 88-97. [URL: <http://rrbusiness.ru/journal/article/362/>].
- Tan G.W.-Lee H, Lin V.H, and Ooi K.-B. (2017), «Mobile applications in tourism: the future of the tourism industry?», Industrial Management & Data Systems, Vol. 117 No. 3, pp. 560-581. <https://doi.org/10.1108/IMDS-12-2015-0490>.
- Ali A.; Frew A.J. ICT and sustainable tourism development: An innovative perspective. J. Hosp. Tour. Technol. 2014, 5, 2-16.
- <https://www.youtube.com/>
- <https://support.google.com/>
- <https://gs.statcounter.com/social-media-stats/all/uzbekistan>